



Muxriddin USMANOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti doktoranti
E-mail: muhridinusmanov0@gmail.com

THE IMPORTANCE OF PERCEIVING THE ERA IN PROFESSIONAL ACTIVITY

Annotation

This article analyzes the phenomenon of perceiving the era from philosophical, theoretical, and practical perspectives. It comparatively examines the views of Bergson, James, and M. Heidegger in Western philosophy, and the approaches of Ibn Sina, Farabi, and Confucianism in Eastern thought. The spiritual aspects of understanding the era in Alisher Navoi's works are highlighted. The study integrates traditional and modern approaches to demonstrate the significance of adequately perceiving the era in various professional fields, including pedagogy, science, writing, and management. Furthermore, it highlights the contemporary relevance of perceiving the era within the context of Uzbekistan's independence period and the "New Uzbekistan" strategy.

Key words: Philosophy of time, professional activity, modernity, pedagogy, leadership, societal development, phenomenology, hermeneutics, Uzbekistan, Eastern and Western philosophy, spiritual maturity.

ВАЖНОСТЬ ВОСПРИЯТИЯ ЭПОХИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В статье анализируется феномен восприятия эпохи с философской, теоретической и практической точек зрения. Сравнительно исследуются взгляды Бергсона, Джеймса, М. Хайдеггера в западной философии, а также подходы Ибн Сины, Фараби и конфуцианства в восточной мысли. Освещаются духовные аспекты понимания эпохи в произведениях Алишера Навои. В ходе исследования объединяются традиционные и современные подходы, демонстрируется значимость адекватного понимания эпохи в профессиональной деятельности – в сфере педагогики, науки, писательства и управления. Также раскрывается актуальность восприятия эпохи в условиях независимого Узбекистана и в контексте стратегии «Новый Узбекистан».

Ключевые слова: Философия времени, профессиональная деятельность, современность, педагогика, лидерство, общественное развитие, феноменология, герменевтика, Узбекистан, Восточная и Западная философия, духовная зрелость.

DAVRNI IDROK ETISHNING PROFESSIONAL FAOLIYATDAGI AHAMIYATI

Аннотация

Maqolada davrni idrok etish fenomeni falsafiy, nazariy va amaliy nuqtai nazardan tahlil qilingan. G‘arb falsafasida Bergson, James, M. Haydegger qarashlari, Sharq tafakkurida esa Ibn Sino, Farobiy va Konfutsiychilikning yondashuvlari qiyosiy o‘rganiladi. Alisher Navoiy asarlarida davrni anglashning ma‘naviy jihatlarini yoritiladi. Tadqiqot davomida an‘anaviy va zamonaviy yondashuvlar birlashtirilib, professional faoliyat – pedagogika, ilm-fan, yozuvchilik va boshqaruv sohasida davrni munosib anglashning ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida mustaqillik davri va “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi kontekstida davrni idrok etishning dolzarbligi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Vaqt falsafasi, professional faoliyat, zamonaviylik, pedagogika, rahbarlik, jamiyat taraqqiyoti, fenomenologiya, germenevtika, O‘zbekiston, Sharq va G‘arb falsafasi, ma‘naviy kamolot.

Kirish. Insoniyat tarixida vaqt va davr (zamon) tushunchalari doimiy ravishda barcha mutaffakirlarning falsafiy tahlil markazida bo‘lib kelgan. Chunki inson o‘z mavjudligini, dunyo bilan aloqasini va kasbiy faoliyatini doimo zamon bilan uyg‘unlikda tasavvur qiladi. Davrni idrok etish deganda shaxsning zamon ruhini, tarixiy voqelikni va hozirgi kunning ijtimoiy-madaniy sharoitlarini tushunib va munosib anglab yashashi tushuniladi. Bu hodisa nafaqat individual tafakkur jarayoni, balki professional (kasbiy) faoliyat samaradorligi uchun ham poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Fransuz faylasufi G. Bergson ta‘kidlaganidek, “ilmiy vaqt mexanik va chiziqli, ammo inson ongidagi vaqt davomiylik, uzluksizlik va sezgi orqali idrok etiladi”[4].

Vaqtning falsafiy tushinishida G‘arb va Sharq an‘analari turlicha yondashuvlarni shakllantirgan. G‘arb falsafasida W. James “Barcha tasavvur qilingan vaqtlarning prototipi – bu aldamchi hozirgi zamon bo‘lib, uning qisqa davomiyligini biz darhol va uzluksiz idrok etamiz” deya, ongidagi vaqt tajribasini qisqa, ammo seziladigan davomiylik sifatida talqin qiladi[8].

Vaqt haqida fikr ketganda Arastu shunday ta‘kidlaydi: “Tom ma‘noda vaqt tushunchasi mavjud emas, faqat lahzalar mavjud. Ana shu lahzalarning yig‘indisini ifodalash uchungina “vaqt” so‘zidan foydalanamiz. Biz ana shu lahzalarda yashaymiz. Vaqtimizdan unumli foydalanayabman deyishimiz uchun biz hozirgi lahzamizni qadrlashimiz kerak”.

B. Dainton ham vaqt idroki masalasida “Biz o‘zgarish, davomiylik va ketma-ketlik kabi vaqt bo‘ylab davom etadigan hodisalarni bevosita idrok etayotgandek tuyulamiz” deb, ongning vaqtga oid tajribasi jarayonlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqadorligini ko‘rsatadi[16].

Sharq falsafasida esa vaqt ko‘proq siklilik va axloqiy-ma‘naviy mazmunga ega. Masalan, S.A. Prosekov: “Xitoy madaniyati chiziqlilikni davriylik bilan, qo‘zg‘almaslik va munosib fursatni kutish qobiliyatini esa lahzali reaksiya bilan uyg‘unlashtiradi”[12], deya ta‘kidlaydi. Islom falsafasi vakillari, jumladan Ibn Sino, vaqtning “harakatning miqdoriy o‘lchovi” sifatida ta‘riflaydi va uni mavjudotning shakllanish jarayoni bilan bog‘laydi[7].

“Fozil odamlar shahri” asarida Abu Nasr Farobiy rahbar uchun davrni to'g'ri idrok etish siyosiy va ma'naviy yetuklik mezonlaridan biri ekanini alohida qayd etadi[5]. Hazrati mir Alisher Navoiy, davr ruhini anglashni insonning ma'naviy kamoloti uchun eng muhim omil sifatida ko'rsatgan. U “Mahbub ul-qulub” asarida zamon o'zgaruvchanligini, unga ongli moslashish lozimligini ta'kidlab quyidagi fikrlarni ilgari suradi: “insonning ijtimoiy hayoti doimiy o'zgarishlarga mos ravishda yo'naltirilishi kerak”[10].

Bugungi kunda insoniyat oldida texnologik taraqqiyot “xavfi”, axborot oqimlarining tezkorligi, ekologik inqiroz, pandemiyasi kabi turli global muammo-masalalar mavjud. Bu davrni idrok etish nafaqat falsafiy masala, balki professional faoliyatda samaradorlikni belgilovchi mezon ham ekanligini ko'rsatadi. Bizning sharoitda mustaqillik davri, “Yangi O'zbekiston” taraqqiyot strategiyasi, ta'lim va ilm-fan sohasidagi islohotlar mutaxassislarimizdan davrni to'g'ri idrok etishni talab qilmoqda. Zero, jamiyatdagi islohotlarni faqat zamon ruhini anglay olgan shaxslargina samarali amalga oshira oladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Davrni idrok etish falsafiy tafakkurning eng qadimiy va murakkab masalalaridan biri bo'lib, turli davrlarda mutafakkirlar tomonidan turlicha yondashuvlarda tahlil qilingan. Aristotel o'zining “Fizika” asarida vaqtni “harakatning o'lchovi” sifatida ta'riflagan va uning inson ongida idrok qilinishi bilan obyektiv dunyodagi mavjudligi o'rtasidagi farqni ko'rsatib bergan[2]. “Avgustinning e'tiroflari” asarida vaqtni sirli mohiyatini ruhiy va diniy jihatdan tushuntirib, “hozirgi lahza – o'tgan xotira, mavjud idrok va kelajak intilishining birligidir” deya izohlagan edi A.Avgustin[3]. Yuqoridagi qarashlar shuni ko'rsatadiki, Sharq va G'arb falsafasi tarixida vaqt nafaqat fizik hodisa sifatida, balki insonning ruhiy hayotiga chuqur singib ketgan tushuncha sifatida ham yoritilgan.

XX asrga kelib, G.Bergson vaqtni ikki xil ko'rishda: mexanik ilmiy vaqt va “haqiqiy davomiylik” siaftida talqin qiladi. Unga ko'ra, “ilmiy vaqt bo'laklarga bo'linib o'lchanadi, ammo inson ongida vaqt doimo oqim va uzluksizlik sifatida idrok qilinadi”. W.James ham bu qarashni davom ettirib, ongda vaqt tajribasini “hozirgi lahza” tushunchasi orqali ifodalagan va “Barcha tasavvur qilingan vaqtlarning prototipi – bu aldamchi hozirgi bo'lib, biz uning qisqa davomiylikini bevosita va uzluksiz his qilamiz” deya ta'kidlagan[8]. M.Haydegger esa “Borliq va vaqt” asarida vaqtni inson mavjudligining ontologik asosi sifatida tushuntirib, “inson mavjudligi – vaqt orqali namoyon bo'ladigan mavjudlikdir” deya yozgan[6].

Metodologik jihatdan mavzuni tahlil qilishda bir nechta yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Fenomenologik metod orqali vaqt insonning ichki ong oqimi sifatida o'rganiladi. Germenevtik metod matnlarni sharhlash orqali davrni idrok etish jarayonini tahlil qiladi. Tarixiy-komparativ metod Sharq va G'arb qarashlarini solishtirish imkonini beradi. Nihoyat, ijtimoiy-falsafiy metod professional faoliyatdagi davrni idrok etishning ahamiyatini tahlil qilish uchun qo'llanadi. Shu metodlarning uyg'unligi mazkur masalani chuqurroq va ko'p qirrali yondashuvda ochib berishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, davrni idrok etish falsafiy, diniy, ijtimoiy va ilmiy qarashlarning markazida turadigan masala bo'lib, uni tushunmasdan professional faoliyatni samarali tashkil etish mumkin emas. G'arb mutafakkirlari vaqtni subyektiv ong oqimi va ontologik kategoriya sifatida yoritgan bo'lsa, Sharq mutafakkirlari uni sikllilik, axloqiy-ma'naviy tartib va jamiyatning barqarorligi bilan bog'lagan. Markaziy Osiyo mutafakkirlari esa davrni anglashni insonning ma'naviy

komilligi va jamiyat taraqqiyotining poydevori sifatida ko'rganlar. Zamonaviy tadqiqotlar esa vaqt idroki nafaqat falsafiy, balki kognitiv va nevrologik jihatdan ham chuqur o'rganilishi zarurligini ko'rsatmoqda. Shunday qilib, metodologik yondashuvlarning uyg'unligi davrni idrok etish masalasini yanada kengroq falsafiy va amaliy doirada tadqiq etish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Davrni idrok etish masalasi falsafiy, ijtimoiy va amaliy jihatdan chuqur o'rganilganda uning professional faoliyatdagi ahamiyati aniq ko'rinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, vaqtni anglash, zamon ruhini tushunish va uni to'g'ri talqin qilish turli kasb egalari uchun nafaqat nazariy masala, balki amaliy samaradorlikni ta'minlovchi omildir. G.Bergsonning “haqiqiy davomiylik” konsepsiyasi asosida olib qaraganda, insonning ichki vaqt tajribasi va tashqi mexanik vaqt o'rtasidagi uyg'unlik professional faoliyat samaradorligini belgilaydi. Bu qarash zamonaviy sharoitda ham dolzarb bo'lib, pedagogning dars jarayonida vaqtni boshqarishi, rahbarning strategik qaror qabul qilish jarayoni yoki olimning tadqiqot metodologiyasini tanlashida muhim rol o'ynaydi.

W.James tomonidan ilgari surilgan “Yolg'on lahza” nazariyasi esa natijaviy jihatdan shuni ko'rsatadiki, insonning professional faoliyati doimiy ravishda hozirgi lahzani sezish, o'tgan tajribadan saboq olish va kelajakni rejalashtirish birligida amalga oshadi. Bu ayniqsa, yozuvchi yoki san'atkorlarning ijodiy faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi, chunki ular davr ruhini asarlarida ifodalash orqali jamiyatni ma'naviy jihatdan uyg'otadilar.

Sharq falsafasining davrni sikllilik asosida idrok etishi ham amaliy natijalar beradi. Masalan, Konfutsiychilikda davrni anglash axloqiy tartibni saqlash vositasi sifatida talqin etilgan bo'lsa, bu fikr bugungi rahbarlik ahamiyotida ham dolzarbdir. Chunki zamonaviy rahbar zamon ruhini anglamasa, u jamiyat ehtiyojlariga mos siyosat yurit olmaydi.

Islom falsafasida Ibn Sino va Forobiy qarashlari natijaviy jihatdan professional faoliyat uchun asosiy mezonlardan birini taqdim etadi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining qarashlari ham bu masalada muhim natijalar beradi. A.Navoiy “Mahbub ul-qulub”da insonning zamonga moslashishi zarurligini qayd etib, davrni idrok etish insonning ma'naviy kamolotidagi muhim bosqich ekanini ko'rsatadi. Zamonaviy o'zbek olimlaridan R. Abdullayev esa davrni idrok etishning jamiyatdagi islohotlarga moslashuvchanlik uchun zarur shart ekanini ta'kidlaydi. Bu fikr ta'lim sohasida, xususan o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llashida yaqqol namoyon bo'ladi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, davrni idrok etish professional faoliyatga bevosita ta'sirini. B.Dainton vaqt ongini uzoq muddatli hodisalar orqali tahlil qilib, insonning qaror qabul qilish jarayonida vaqtni qanday idrok etishi muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. E.Tomas XVIII asr ingliz faylasuflarining tajribalarini o'rganib, davrni idrok etish nazariyasi zamonaviy ilmiy izlanishlarda ham dolzarb metodologik asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatgan.

O'zbekiston sharoitida ham davrni idrok etish masalasidan olingan natijalar jamiyat rivoji uchun muhim. Mustaqillik yillarida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar, ilmiy faoliyatda raqamlashtirish jarayonlari va rahbarlik tizimidagi o'zgarishlar zamon ruhini anglagan mutaxassislar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Bu jarayonlarda davrni anglash qobiliyati bo'lmagan kadrlar ko'pincha eskicha yondashuvlarga yopishib qolmoqda va natijada samaradorlik pasaymoqda.

Shunday qilib, olib borilgan adabiyotlar tahlili va falsafiy yondashuvlar asosida aniqlangan natijalar quyidagicha umumlashtiriladi: birinchidan, davrni idrok etish professional

faoliyat samaradorligini oshiruvchi asosiy omildir; ikkinchidan, Sharq va G'arb mutafakkirlari qarashlari bu masalani turli qirralardan ochib bergan bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi; uchinchidan, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar vaqt va davrni idrok etishni nafaqat falsafiy, balki kognitiv va nevrologik hodisa sifatida ham tasdiqlamoqda; to'rtinchidan, O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, zamon ruhini anglay olgan professional shaxslar jamiyatdagi islohotlarni samarali amalga oshirishda yetakchi bo'lib chiqmoqda.

Xulosa va takliflar. Davrni idrok etish fenomeni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinganda, uning professional faoliyatdagi o'rni yanada ravshanlashadi. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, vaqt va davrni qanday talqin qilish insonning dunyoqarashini, kasbiy qarorlarini, boshqaruv strategiyalarini hamda ijodiy faoliyatini bevosita shakllantiradi. Shuning uchun muhokama jarayonida Sharq va G'arb mutafakkirlarining qarashlari, zamonaviy ilmiy yondashuvlar va O'zbekiston sharoitidagi tajribalar uyg'un ravishda tahlil qilinishi zarur.

Avvalo, G. Bergson tomonidan ilgari surilgan "haqiqiy davomiylik" nazariyasiga qaytadigan bo'lsak, u ilmiy va mexanik vaqtni inson ongidagi ichki oqim bilan taqqoslab, ongiy tajribaning o'ziga xosligini ko'rsatadi. Uning fikricha, "ilmiy vaqt bo'laklarga ajralgan, ammo inson ongidagi vaqt doimo oqimdir". Bu yondashuv shuni anglatadiki, professional faoliyatda faqat obyektiv o'lchovlar bilan chegaralanish yetarli emas, balki shaxsning ichki tajribasi, intuitiv sezgisi ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, pedagog o'z darsini faqat vaqt jadvali asosida emas, balki o'quvchilarning ruhiy holati va ehtiyojlarini sezib tashkil etishi lozim.

W. James vaqtni inson ongining hozirgi lahza, o'tgan xotira va kelajak rejasini bir butun tajribada uyg'unlashtirishini ko'rsatadi. Muhokama nuqtai nazaridan bu g'oya professional faoliyatda, xususan ijodiy jarayonlarda muhim ahamiyatga ega. Yozuvchi yoki san'atkor o'z davrini idrok etar ekan, faqat hozirgi voqelikni emas, balki tarixiy xotira va kelajak tasavvurini ham birlashtirib, asarlarida jamiyat uchun zarur ruhiy turtkini yaratadi.

Sharq falsafasi, xususan Konfutsiychilik va daoizm davrni idrok etish axloqiy tartib va uyg'unlik bilan bog'liq. Bu muhokama qilganda, rahbarlik amaliyotida sabr va tezkorlik uyg'unligi muhim ekanini namoyon bo'ladi. Ya'ni, rahbar strategik qarorlarni qabul qilishda sabr bilan kutishi, ammo kerakli lahzada tezkor reaksiya berishi zarur.

Islom falsafasida Ibn Sino vaqtni harakatning miqdoriy o'lchovi sifatida talqin qilgan va bu orqali mavjudotning shakllanish jarayonini vaqt bilan bog'lagan. Bu qarash muhokama konteksida shuni ko'rsatadiki, ilmiy faoliyat ham vaqtni to'g'ri idrok etishga asoslanadi. Olim vaqtni anglamasa, u o'z tadqiqotini to'g'ri rejalashtira olmaydi, ilmiy natijalarga erishishda kechikadi. Forobiy esa rahbarlik jarayonida davrni to'g'ri anglash jamiyatni rivojlantirish sharti ekanini ta'kidlagan. Bu g'oya bugungi kun siyosiy va ijtimoiy boshqaruv uchun ham dolzarbdir.

Zamonaviy tadqiqotlar ham muhokama uchun yangi asoslar beradi. O'zbekiston sharoitida olib borilgan islohotlar ham davrni idrok etishning qanchalik muhim ekanini

ko'rsatadi. Mustaqillikdan keyin ta'lim va ilm-fan sohasida amalga oshirilgan yangilanishlar, raqamlashtirish jarayonlari va boshqaruv tizimidagi islohotlar zamon ruhini chuqur anglagan mutaxassislar tomonidan amalga oshirilmogda. Aksincha, davrni idrok etish olmaganda kadrlar eskicha yondashuvlarga yopishib qolmogda va natijada ular jamiyatdagi o'zgarishlarga moslasha olmayapti. Bu muhokamadan chiqadigan asosiy xulosa shuki, professional faoliyatning barcha sohalarida davrni idrok etish muvaffaqiyat omili sifatida namoyon bo'ladi.

Muhokama jarayonida aniqlandiki, davrni idrok etish insonning ichki tajribasi va tashqi sharoitlari uyg'unligi sifatida namoyon bo'ladi. Bu uyg'unlik professional faoliyat samaradorligini ta'minlaydi, chunki inson faqat zamon ruhini to'g'ri anglagan holda o'z kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erisha oladi. Pedagog, olim, yozuvchi yoki rahbar bo'lishidan qat'i nazar, har bir mutaxassis uchun davrni idrok etishning nazariy va amaliy jihatlari hamisha dolzarbdir.

Olib borilgan tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, davrni idrok etish nafaqat falsafiy-nazariy muammo, balki professional faoliyat samaradorligini belgilovchi fundamental omildir. Inson o'z zamonini anglamas ekan, u ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga moslasha olmaydi, kasbiy faoliyatida eskirgan yondashuvlarga suyanib qoladi. G. Bergsonning vaqtni ichki oqim va davomiylik sifatida talqin qilishi professional faoliyatda intuitiv sezgi va ichki tajribani hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. W. James esa inson ongining "Yolg'onchi lahza" orqali o'tgan, hozirgi va kelajakni birlashtirishi kasbiy qarorlarning muvaffaqiyati uchun zarur shart ekanini asoslab berdi. Bu qarashlar bugungi kunda pedagog, olim, yozuvchi va rahbarlarning faoliyatida ham dolzarb bo'lib qolmogda.

Sharq falsafasi, jumladan Konfutsiylik va daoizm, vaqtni sikllilik va uyg'unlik orqali izohlab, insonning ijtimoiy burchlari va axloqiy mas'uliyatini davrni to'g'ri idrok etish bilan bog'lagan.

Zamonaviy tadqiqotlar ham vaqt va davrni idrok etish professional faoliyatda muvaffaqiyat omili ekanini isbotlamoqda. E. Tomas ingliz faylasuflarining tajribalarini tahlil qilib, vaqtni idrok etish nazariyasi bugungi ilmiy tadqiqotlarda ham metodologik asos bo'lib xizmat qilayotganini qayd etadi.

Xulosa qilib aytganda, davrni idrok etishning professional faoliyatdagi ahamiyati quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

- u kasbiy qarorlar va strategik rejalash samaradorligini ta'minlaydi;
- ijodiy faoliyat va ta'lim jarayonini zamon talablari bilan uyg'unlashtiradi;
- jamiyatning siyosiy va ijtimoiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida bu jarayon "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi, raqamlashtirish, ilmiy innovatsiyalar va ta'limdagi islohotlar bilan chambarchas bog'liqdir. Demak, davrni to'g'ri idrok etish har qanday professional shaxs uchun nafaqat nazariy bilim, balki amaliy muvaffaqiyatning ham kalitidir.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev R. Zamon va tafakkur. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018. – 152 b.
2. Aristotel. Fizika. – Moskva: Nauka, 1975. – 320 b.
3. Avgustin Avreliy. Confessiones. – Moskva: Nauka, 1991. – 415 b.
4. Bergson H. Time and Free Will: An Essay on the Immediate Data of Consciousness. – London: George Allen & Unwin, 1910. – 285 p.
5. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1993. – 96 b.
6. Heidegger M. Being and Time. – Oxford: Blackwell, 1962. – 488 p.
7. Ibn Sino. Kitob ash-Shifo. – Qohira: al-Matba'a al-Amira, 1952. – 421 b.
8. James W. The Principles of Psychology. – New York: Henry Holt, 1890. – 689 p.

9. Kügler P. What Bergson should have said about special relativity // *Synthese*. – 2021. – Vol. 198. – P. 1123–1138.
10. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – 250 b.
11. Bekinov, O. T. (2025). THE IMPACT OF CYBERSPACE AND HUMAN-TECHNOLOGY INTEGRATION ON SOCIAL LIFE: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS. *Экономика и социум*, (6-2 (133)), 2036-2040.
12. Prosekov S.A. The Perception of Time in European and Chinese Cultures // *Russian Journal of Philosophical Sciences*. – 2021. – Vol. 63(12). – P. 47–67.
13. Ibrokhimov, F. A. (2025). POSSIBILITIES OF USING EFFECTIVE MODERN METHODS IN TEACHING PHILOSOPHICAL SCIENCES. *Экономика и социум*, (6-2 (133)), 2045-2049.
14. Thomas E. The Specious Present in English Philosophy 1749–1785 // *Philosophers' Imprint*. – 2023. – Vol. 23(7). – P. 1–20.
15. Dainton B. Temporal Consciousness // *Stanford Encyclopedia of Philosophy*. – 2020.
16. Hogendoorn, H. (2022). Haqiqiy vaqtida idrok qilish: hozirgi vaqtni bashorat qilish, o'tmishni qayta qurish. *Kognitiv fanlar tendentsiyalari*, 26 (2), 128-141.